



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA INVESTITSİYALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHING MUHIM JIHATLARI

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АУДИТА ИНВЕСТИЦИЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Азимова Хулкар Эгамбердиевна

KEY ASPECTS OF IMPROVING THE AUDIT OF INVESTMENTS BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

Received: June 4, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati hamda xalqaro standartlar asosida investitsiyalar faoliyatining yuritilishi, xalqaro integratsiyalashuv asosida investitsiyalarni tan olish, baholash va hisobga olishning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi keskin ijobiy o'zgarishlar, davlatlar o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonining jadallashuvi natijasida O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi tahlil qilingan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida investitsiyalar auditini takomillashtirishning muhim jihatlari bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xalqaro integratsiyalashuv, investitsiyalar hisobi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, xorijiy investitsiyalar, kapital, investitsiyalar audit

Аннотация: В данной статье рассматриваются экономическая сущность и значение инвестиций, а также ведение инвестиционной деятельности в соответствии с международными стандартами. Освещены особенности признания, оценки и учета инвестиций в условиях международной интеграции. Кроме того, проанализирована актуальность перехода Республики Узбекистан на международные стандарты финансовой отчетности в условиях существенных позитивных изменений в мировой экономике и ускорения интеграционных процессов между государствами. В статье также приведены выводы и предложения по ключевым аспектам совершенствования аудита инвестиций на основе МСФО.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, международная интеграция, учет инвестиций, хозяйствующие субъекты, иностранные инвестиции, капитал, аудит инвестиций.

Abstract: This article examines the economic essence and significance of investments, as well as the conduct of investment activities in accordance with international standards. It highlights the specific features of recognition, measurement, and accounting of investments within the framework of international integration. Furthermore, the paper analyzes the relevance of transitioning to International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan in the context of significant positive changes in the global economy and the accelerating processes of international integration among countries. The study also presents conclusions and recommendations on key aspects of improving the audit of investments based on IFRS.



Keywords: International Financial Reporting Standards, international integration, investment accounting, business entities, foreign investments, capital, investment audit.

■ KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish va mulkiy munosabatlarni erkinlashtirish asosida mamlakat iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish jarayoni esa, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash ustuvor vazifalardan biri sifatida tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi" [1].

Darhaqiqat, iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish bilan iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Buning uchun esa, eng avvalo, bir vosita sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish davlatlarida, shujumladan, respublika buxgalteriyahisobimetodologiyasida qo'llanib kelinayotgan investitsiyalar hisobi va auditi mezonlari va tamoyillari tushunchalaridagi noaniqliklarni bartaraf etish taqozo etiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya jarayonlari moliya va investitsiyalar sohasida ham kengayib bormoqda. Xalqaro savdo va moliyaviy operatsiyalar ko'paygan sari, mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy hisobotlar va audit tizimlarini muvofiqlashtirish zarurati oshmoqda. Shunday qilib, Xalqaro Moliyaviy

Hisobot Standartlarining joriy etilishi va bu tizimga mos ravishda investitsiyalarni hisoblash va audit qilish muhim bo'lib qolmoqda. Asosiy sabablaridan biri bu mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlab o'tganlaridek, investitsiya-bu mamlakat yoki korxonaning yuragi hisoblanadi. Investitsiyalar yordamida korxonalarda ko'plab yangiliklarni amalga oshirish mumkin, yangiliklar deganda ham iqtisodiy ham texnik va ijtimoiy jihatdan ham hozirgi zamon bozor talablariga mos bo'lgan yangiliklar nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash joizki, investitsiya investorlar tomonidan korxonaga olib kiriladi, ayni paytda hozirgi zamonaviy bozor sharoitidagi investorlar esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritiluvchi korxonalarga qiziqish bildirishmoqda. Buning asosiy sabablaridan bir nechtasi bu uning qulayligi, aniqligi va investorlar uchun tushunishning osonligidir.

Mamlakatimiz korxonalari iqtisodiyotini rivojlantirishda investorlarga talab yildan-yilga oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida investorlarga iqtisodiy imtiyozlar va korxonaning moliyaviy hisob siyosatida bir

muncha aniqlik va shaffoflikni oshirishni taqozo qilmoqda. Ayni shu maqsadda iqtisodiyotning rivoji va keng ko'lamdagi ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida korxonalarning investitsiya hisobi va auditini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida yuritilishi va takomillashtirilishi zarur hisoblanadi. Amaldagi hisob va audit tizimida investitsiyalar hisobi va auditorlik faoliyatida yechimini kutayotgan muammolarning mavjudligi mazkur mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida investitsiyalar auditini takomillashtirishning muhim jihatlari qator iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirib o'tilgan hamda moliyaviy hisobotni takomillashtirishda ularning hissasi katta ekanligini ifodalaydi. Masalan, xorijiy iqtisodchi olimlardan [Hermanson R. H. 1992.], [Nidlz B. 2004.] va boshqa olimlar moliyaviy hisobotning nazariy konseptual asoslari hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik masalalarini; moliyaviy instrumentlar va qo'shimcha moliyaviy hisobot (additional financial reporting) masalalari, moliyaviy hisobot garmonizatsiyasi (harmonisation) [Astaxov, V. P. 2011.], [Kachalin V.V. (1998).], [Kuter M. I. 2013], [Paliy V.F. 2008.], [Sokolov Ya.V. 2009], [Getman V.G. 2012], [Drujilovskaya T. Yu., Drujilovskaya E. S. 2019] kabi olimlar o'z ishlarida MHXS larini o'z mamlakatlarida qo'llash masalalarini tadqiq etganlar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham moliyaviy hisobot masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi hamda ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop qilindi. Bular jumlasiga, [Xasanov B.A., Nurmanov K.T., Hasanova R.B. 2021], [Sotivoldiyev A.S., Itkin Yu.M. 2002], [Tashnazarov S.N. 2019], [Urazov K.B., Vaxidov S.V. 2010], [Egamberdiyeva S.R. (2021)] va boshqalarning izlanishlarini kiritish mumkin.

Tashnazarov S.N. fikriga ko'ra, (2018) dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg'or tajribasiga asosan ishchi balans tuzish amaliyotida transformatsiyaga o'tishimiz zarur. Ishchi balans shyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o'tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval (registr) hisoblanadi. [2].

Rossiya olimlari tomonidan boshqa manbalarda quyidagicha ta'rif berilgan: (2021) Transformatsiya-Rossiya standartlari bo'yicha tuzilgan hisobot ma'lumotlari bazasi asosida xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida klassifikatsiyalar parametrlarini o'zgartirish va hisob ob'yektlarini baholash hamda ular to'g'risida axborotlarni ochiqlash yo'li bilan MHXS lariga asosan hisobot tuzish jarayonidir. [3].

Yuqorida nomlari zikr etilgan buxgalteriya sohasidagi iqtisodchi olimlarning ishlarida tovar-moddiy boyliklar, uzoq muddatli aktivlar, daromad va



xarajatlarni tan olish, majburiyatlar, baholash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishning metodologik masalalari tadqiq qilingan. [Dusmuratov R.D.2013] va [Ibragimov A.K. va b.2016] lar tomonidan tayyorlangan ilmiy ishda moliyaviy hisobotning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. I.Ochilov sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish masalalarini tadqiq etgan. [Tashnazarov S.N.2019] o'z darsligida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini yoritgan. Ayni damdagi iqtisodiy rivojlanish jarayonida xalqaro standartlar talablariga mamlakatimiz buxgalteriya hisobi me'yorlari hamda moliyaviy hisobotni tuzish qoidalarini moslashtirilmoqda.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada bugungi kunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida investitsiyalar auditini takomillashtirish masalalarining muhim jihatlarini, shuningdek xalqaro standartlarni transformatsiya qilishning muhimligi va ahamiyati bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamining kengayishi, kapital bozorining rivojlanishi hamda milliy xo'jalik yurituvchi subyektlarning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi korxonalarda investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarori ijrosini ta'minlash sharoitida, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan investitsion faoliyat natijalarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) asosida aks ettirish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. [4].

Xo'jalik yurituvchi subyektlari bilan uning tashqi va ichki kelib chiqishlar o'rtasida investitsiya manbalarining eng foydali harakatini ta'minlash borasida bir qator qarorlar qabul qilish orqali investitsiyalarni yo'nalishdagi ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu sababli moliyaviy investitsiyalar resurslari oqimini nazorat qilish investitsiya faoliyatini tartibga solishdagi asosiy masala hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish jarayonida subyektni uchta tizimli bosqichga ajratish mumkin: muhim axborotni yig'ish va jamlash; uni audit va analiz qilish; boshqaruvga oid investitsion xulosalar qabul qilish kabilardan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar auditini korxonaning investitsion siyosatini baholash, aktivlarning haqqoniy aks ettirilganligini aniqlash, investitsiya operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish, shuningdek, hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchligini tasdiqlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, auditor moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq operatsiyalarni tekshirayotganda dastlabki hujjatlar, shartnomalar, bank hujjatlari, emitentlar to'g'risidagi ma'lumotlar, fond

bozori ko'rsatkichlari hamda amaldagi buxgalteriya standartlariga tayanadi.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobni va auditini mavzusining dolzarbligi, bir tomondan, korxonalarning investitsion faolligi oshib borayotgani, ikkinchi tomondan esa moliyaviy investitsiyalarni noto'g'ri baholash, ularni hisobotda noto'liq yoki noto'g'ri aks ettirish xavfi yuqoriligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotida moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi, ularning qiymatidagi o'zgaruvchanlik hamda investitsion risklarning mavjudligi audit jarayonini murakkablashtiradi. Bu esa, auditorlardan nafaqat buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha, balki moliya bozori, investitsion tahlil va huquqiy me'yorlar bo'yicha ham yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda foydalanadigan qarz resurslari bo'yicha foizlar hisob-kitobi, schyotlar rejasini qo'llash borasidagi yo'riqnomada sotib olingan qimmatli qog'ozlar bahosiga sotib olingan qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilinishiga qadar ularni xarid qilishda foydalanadigan qarz kapitali bo'yicha to'langan foizlar ham sotib olingan qimmatli qog'ozlar tannarxiga qo'shilishi ko'zda tutilgan.

Audit moliyaviy investitsiya ish faoliyatining quyida keltirib o'tilgan barcha funksiyalarini amalga oshirishda asosiy o'rin tutadi:

- rejalashtirish uchun eng foydali investitsion dasturni tanlash uchun uning shakllariga baho beriladi;
- taxminlash uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya strategiyasi turlarini tanlash ishlab chiqiladi va asos qilib olinadi;
- tashkil etish uchun xo'jalik yurituvchi subyekti investitsiyalarini tartibga solishning eng foydali tuzilmasini tanlab olish uchun variantlar baholanadi;
- muvofiqlashtirish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlari ma'naviyat investitsiyalarini muvofiqlashtirish tizimining barcha qismlarida ishlarining tasdiqlanganligini ta'minlaydi;
- boshqarish uchun qo'yilgan vazifalarga chetga chiqish holatlarini belgilangan vaqtda bartaraf etishda ko'maklashish maqsadida bunday holatlar tezkorlik bilan topiladi;
- nazorat uchun moliyaviy ma'lumotlarning haqiqiyligi, moliya ishlarining tartibga solinganligi, moliyaviy rejalarining bajarilishi, umuman olganda, boshqaruv qarorlarining bajarilishi nazorat qilinadi.

Xususan hududlar kesimida investitsiyalarni jalb etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududning potensial salohiyatini oshirish hamda Qashqadaryo viloyati tumanlar kesimida loyihalar bilan band bo'lgan yer maydonidan foydalanish holatining tahlili quyidagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

1-jadval tahlili natijalari Qashqadaryo viloyatidagi kichik sanoat zonalarida hududlarida investitsiya loyihalarini bilan band bo'lgan yer maydonlarining hududlar kesimida turlicha shakllanganligini ko'rsatib turibdi. Jumladan, Qarshi shahri, Kitob, Chiroqchi va Shahrisabz tumanlarida loyihalar bilan band yer maydonlarining nisbatan yuqori ulushi kuzatilgan bo'lib, bu mazkur hududlarda investitsion faollik va yer resurslaridan foydalanish darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa,



Qarshi shahrida loyiha maydonlarining sezilarli sanoat zonalari imkoniyatlaridan faol kengayishi tadbirkorlik subyektlari tomonidan kichik foydalanilayotganligini ko'rsatadi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati bo'yicha tumanlar kesimida loyihalar bilan band bo'lgan yer maydoni (ga)

№	Tumanlar	2023	2024	2025	2024-yilda 2023-yilga nisbatan		2025-yilda 2024-yilga nisbatan	
					miqdor (ga)	O'zgarish sur'ati foizda (%)	miqdor (ga)	O'zgarish sur'ati foizda (%)
1	G'uzor tumani	0,7	0,31	0,38	-0,39	-55,7	0,07	22,58
2	Dehqonobod tumani	0,9		1,9	-0,9	-100,0	1,9	0
3	Kasbi tumani	2,54	2,88	2,68	0,34	13,4	-0,2	-6,94
4	Kitob tumani	5,467	5,9	5,94	0,433	7,9	0,04	0,68
5	Koson tumani	4,2	1,91	3,71	-2,29	-54,5	1,8	94,24
6	Ko'kdala tumani	0,86	0,42	2,45	-0,44	-51,2	2,03	483,33
7	Qamashi tumani	0,6	0,51	0,82	-0,09	-15,0	0,31	60,78
8	Qarshi tumani	1,53	1	1	-0,53	-34,6	0	0,00
9	Qarshi shaxri	1,466	5,18	13,14	3,714	253,3	7,96	153,67
10	Mirishkor tumani	0,32	0,27	0,27	-0,05	-15,6	0	0,00
11	Muborak tumani	1,83	1,83	1,83	0	0,0	0	0,00
12	Nishon tumani	1,647	1,28	1,24	-0,367	-22,3	-0,04	-3,13
13	Chiroqchi tumani	5,98	5,98	5,98	0	0,0	0	0,00
14	Shaxrisabz tumani	5,17	5,4	4,44	0,23	4,4	-0,96	-17,78
15	Shaxrisabz shaxri	0,79	0,79	0,79	0	0,0	0	0,00
16	Yakkabog' tumani	1,57	1,41	1,35	-0,16	-10,2	-0,06	-4,26

Shu bilan birga, ayrim tumanlarda loyiha maydonlarining qisqarishi yoki past darajada saqlanib qolishi mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda investitsiya loyihalarini jalb etish darajasi hududlar bo'yicha bir xil emasligini anglatadi. Xususan, investitsiya infratuzilmasi, transport-logistika qulayliklari va bozor omillari loyihalarning hududiy joylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, kichik sanoat zonalarda investitsiya loyihalari bilan band yer maydonlarining o'zgarish dinamikasi ushbu hududlarda investitsiya faoliyatining kengayib borayotganligini tasdiqlaydi. Biroq yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda kichik sanoat zonalarining iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish uchun investitsion faolligi nisbatan past hududlarda yangi loyihalarni jalb etish, bo'sh yer maydonlarini iqtisodiy aylanmaga kiritish va tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqligini yuzaga keltiradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli investitsiyalardan samarali foydalanishni ta'minlash, ularning iqtisodiy

samaradorligini oshirish hamda moliyaviy natijalarga ta'sirini chuqur o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda investitsiyalarni tahlil qilish va auditdan o'tkazish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Investitsiyalardan samarali foydalanishni tahlil qilishning nazariy asoslari iqtisodiy samaradorlik kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u investitsiya resurslaridan foydalanish natijasida olinadigan iqtisodiy foydaning sarflangan mablag'larga nisbati orqali ifodalanadi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro standartlar asosida investitsiyalar auditini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy axborotlarining shaffofligini oshiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va investitsion qarorlar sifatini yaxshilaydi. Buning uchun Auditning xalqaro standartlari (ISA) va Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (IFRS) talablarini to'liq joriy etish, riskga asoslangan auditni rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda auditorlar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada investitsion faoliyat samaradorligi va xalqaro investitsiya jozibadorligi sezilarli darajada ortadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori
3. Tashnazarov S.N. "Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish" (MHXS va ilg'or xorijiy tajribalar asosida). Monografiya
4. Shokiraliyevich, G. A. I. (2021). Increasing The Income Of The Population And Reducing. The Tax

Burden As A Key Factor In Improving The Living Standards Of The Population. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(07), 7-10

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Azimova Hulkan Egamberdiyevna "Buxgalteriya hisobi va auditi" kafedrasida / Азимова Хулкар Эгамбердиевна и.о. доцента кафедры «Бухгалтерский учет и аудит» / Azimova Hulkan Egamberdiyevna

E-mail: hulkarazimova@bh.mail.ru

ORCID: 0009-0007-4468-6533



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz